



Yusupova Iqbol

Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali magistrant

Annotatsiya: Maqolada adabiy tanqidchilikning taraqqiyot tamoyillari, bu jarayonda alohida o'ringa ega bo'lgan adabiyotshunos – tanqidchilarimizning tanqidchilikning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari tahlili berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy tanqid, adabiyotshunos, adabiy-tanqidiy jarayon, adabiy-estetik tafakkur, tanqidchi, shoir, mutafakkir, ijodiy meros.

Annotation: The article analyzes the principles of development of literary criticism, the views of our literary critics, who have a special place in this process, about the specific characteristics of criticism.

Key words: Literary criticism, literary critic, literary-critical process, literary-aesthetic thinking, critic, poet, thinker, creative heritage.

Аннотация: В статье анализируются принципы развития литературной критики, взгляды наших литературоведов, занимающих особое место в этом процессе, на специфические особенности критики.

Ключевые слова: Литературоведение, литературный критик, литературно-критический процесс, литературно-эстетическое мышление, критик, поэт, мыслитель, творческое наследие.

Adabiy tanqid – bu badiiy asarlarni tahlil qilish, baholash va sharhlashga qaratilgan fan bo'lib, uning maqsadi adabiyotni rivojlantirish, uning ijtimoiy-estetik mohiyatini ochib berish, adabiy jarayonni ilmiy va nazariy jihatdan o'rganish hamda adabiy tanqidiy janrlar: maqola, taqriz, sharh, esse, pamfletlardan foydalanib, adabiy jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir. U asarlarning g'oyaviyligini, uslubini o'rganib, yozuvchilarning ijodini baholaydi va o'quvchiga yo'nalish beradi.

Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u badiiy asarlarni ilmiy-nazariy mezonlar asosida tahlil qilish, baholash va talqin etish bilan shug'ullanadi. Adabiy tanqidning asosiy vazifasi badiiy ijod mahsulini estetik, g'oyaviy va badiiy jihatdan o'rganish, uning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tanqid badiiy asar va adabiy jarayon o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiy tanqidning muhim xususiyatlaridan biri uning ijtimoiy-estetik xarakterga ega ekanligidir. Har bir badiiy asar muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va mafkuraviy qarashlar mahsuli hisoblanadi. Tanqidchi asarni tahlil qilish jarayonida muallif dunyoqarashi, davr ruhi va jamiyat ehtiyojlarini inobatga oladi. Shu jihatdan adabiy tanqid adabiyot bilan jamiyat o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi.

Adabiy tanqidning yana bir muhim jihati – ilmiylik va subyektivlikning uyg'unligidir. Tanqidchi o'z xulosalarini aniq dalillar, nazariy qarashlar va tahliliy yondashuvlarga asoslaydi. Biroq tanqid jarayonida tanqidchining shaxsiy estetik didi, hayotiy tajribasi va



dunyoqarashi ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun adabiy tanqid mutlaq obyektiv baholash emas, balki ilmiy asoslangan ijodiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiy tanqidning funksional xususiyatlari orasida baholash, yo'naltirish va rivojlantirish vazifalari alohida ahamiyatga ega. Tanqid badiiy asarning yutuq va kamchiliklarini aniqlab, ijodkor faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, u o'quvchilarning badiiy didini shakllantirishga, adabiy jarayonning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, adabiy tanqid nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lib, adabiyot nazariyasi bilan badiiy amaliyotni bog'lab turadi. U adabiy yo'nalishlar, janrlar, uslublar va poetik vositalarning rivojini kuzatadi hamda ularni ilmiy jihatdan umumlashtiradi. Natijada adabiy tanqid adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Adabiy tanqidning asosiy jihatlari:

Vazifasi: Adabiy asarni ilmiy, estetik mezonlar asosida tahlil qilish, adabiyot qonuniyatlarini o'rganish, tanqidiy fikr bildirish va adabiyotning rivojiga ko'maklashish.

Janrlari: Adabiy portret, taqriz, bibliografik sharh, esse, pamflet, suhbat, ochiq xat va boshqalar.

Metodologiyasi: Ilmiy bilishda metodologik pluralizmga intilib, turli usullar va falsafiy yondashuvlarni qo'llaydi.

O'rni: Adabiy tanqid adabiyotga bevosita ta'sir qiladi, uning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tarixan, tanqid ba'zan adabiyotni cheklab kelgan bo'lsa-da, Cho'lpon, Oybek kabi yozuvchilar va tanqidchilar uni to'g'ri yo'naltirishga harakat qilishgan. Hozirgi kunda adabiy tanqid o'zini yangicha konsepsiyalar, nazariy qonuniyatlar asosida rivojlantirib, yangi adabiy-nazariy qonuniyatlar asosida rivojlanmoqda. Adabiy tanqid adabiyot nazariyasi (adabiyotshunoslik) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning adabiy-nazariy qonuniyatlarini o'rganishdagi o'rni muhimdir.

"Adabiy tanqid" tushunchasi, lug'aviy va istilohiy ma'nolari. Adabiy tanqid ilmda o'ziga xos hodisa sifatida dastlab Platon, Aristotel, Aristarx faoliyatlarida antik zamonda namoyon bo'ldi. Aslini olganda, tanqidning ilk unsurlari xalq og'zaki ijodida boshlangan. o'tmishda badiiy asar haqida ikki xil: og'zaki va yozma shakllarda fikr bildirib kelindi. Ilk badiiy asar yaratuvchisi xalq bo'lganidek, ularga ilk munosabat bildiruvchi ham xalqning o'zidir. Hayotning barcha jabhalari, jumladan, kishilarning tabiiy ofatga qarshi kurashdagi jasoratini, muayyan maqsad (qanchalik oddiy bolishidan qat'i nazar) zamiridagi estetik uzv adabiy tanqidning dunyoga kelishini taqozo etadi[1]. Bunday hol umum jahon miqyosidagi adabiy tanqidiy tafakkurning paydo bo'lishi uchun umumiy qonuniyat sanaladi. Shu tariqa adabiy tanqidning ilk namunalari folklor asarini yaratuvchilar hamda uni tinglovchilar toifasiga mansubdir deyish mumkin.



Adabiy tanqid namunalari – bu badiiy asarlarni tahlil qiluvchi, baholovchi va tushuntiruvchi maqolalar, taqrizlar, esselar, adabiy sharhlar

Adabiy tanqid namunalari qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

Adabiy-tanqidiy maqola: Asosiy tahlil va baho beruvchi maqolalar.

Taqriz: Kitoblar yoki yangi asarlar haqidagi qisqa, xolis fikrlar.

Adabiy sharh: Adabiy jarayon, yo‘nalishlar haqidagi umumiy tahlillar.

Portret (Adabiy portret): Yozuvchining ijodi va shaxsiyatini tahlil qilish.

Esse, pamflet, ochiq xat, suhbat: Turli janrlarda yozilgan tanqidiy materiallar.

"Naqada" o‘zagidan kelib chiqqan tanqid istilohi muhokama qilmoq, tekshirmoq, o‘rganmoq, nimaningdir haqqoniyligi va to‘g‘riligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, badiiy asami baholash, izohlash kabi ma’nolarni ifodalaydi[2].

Hozirgi tushunchamizdagi o‘zbek adabiy tanqidining shakllanishi o‘zbek vaqtli matbuotining tug‘ilishi va rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Vaqtli matbuot adabiyotga aloqador bu yangi sohani taraqqiy ettirishga katta hissa qo‘shdi. Nashr etilgan badiiy va tajjima asarlariga vaqtli matbuot sahifalarida taqrizlar berildi.

Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning o‘ziga xos tarkibiy qismi: mushtarak va xos xususiyatlar. Hodisaning mohiyati. Adabiy tanqidning xos xususiyati aniq badiiy asar haqida fikr-mulohaza yuritish, uni baholash bo‘lib, uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Ayni vaqtda u adabiy jarayon taraqqiyotiga marifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotshunoslik uch tarkibiy qismdan iborat: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.

Adabiy tanqid asosan harakatdagi adabiy jarayonni tekshiradi, yangi paydo bo‘layotgan asarlar talqin vositasida taraqqiyot tamoyillari haqida xulosa chiqaradi, adabiy jarayonga, yangi mezonlar shakllanishiga ta’sir etadi[3]. Adabiy tanqid zamonaviy badiiy asarlarni xalq hayoti, uning estetik ehtiyoj va talablari jihatidan o‘rganadi, baholaydi, fazilat, nuqsonlarini amqlaydi, yozuvchilarning ijodiy o‘sishlariga va adabiyotning ravnaqiga ko‘maklashadi.

Kezi kelganda ta’kidlash joizki, adabiy tanqidda tarixiy-funksional yondashuv tamoyili bo‘lib, u vaqti-vaqti bilan o‘tmishda yaratilgan badiiy qadriyatlarga murojaat etib turadi. Har bir davr, insonlardagi badiiy-estetik ehtiyoj insoniyat yaratgan buyuk asarlarni o‘qib, uqib, talqin qilib, baholab borishni taqozo etadi. Badiiy adabiyotni adabiy tanqid o‘rganadi. San’atning rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, amaliy san’at kabi yo‘nalishlarini adabiy badiiy tanqid o‘rganadi. Jurnalistlar, san’atshunoslar, kino-teatrshunoslar adabiy-badiiy tanqid sohasini o‘zlashtiradilar.

Tanqidchilik va adabiyotshunoslik hamisha so‘z san’ati bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib kelgan.

O‘zbek adabiyoti tarixida adabiyotshunoslikka oid qator asarlarni va adabiy jarayon haqida ma’lumot beruvchi A. Navoiy, Z.M.Bobur, Furqat, A. Qodiriy, Fitrat kabi yozuvchilar va jurnalistlarni aytishimiz mumkin.

Tanqidchi faqat badiiy asarning sharhlovchisigina bo‘lib qolishi mumkin emas.

Tanqidchi bo‘lishni istagan odam adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga sidqidildan, fidoyilik bilan xizmat qilishi lozim.



1. Qosimov U. O'zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisod-moliya, 2006 yil 12-b.
2. Mirziyoev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. // Xalq so'zi gazetasi, 2019 yil 9 fevral.
3. Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. –T.: Adabiyot va san'at. 1979.174-179-bb.